



LUQMON BO‘RIXON HIKOYALARIDA RUHIY KECHINMALAR TASVIRI

Ro‘ziyeva Yulduz Qahramon qizi,
ToshDO‘TAU Ona tili va adabiyoti ta‘limi
fakulteti 2-kurs magistranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207281>

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘zga sehr bag‘ishlaydigan yozuvchi Luqmon Bo‘rixonning qahramon ichki olamini tasvirlash mahorati “Qo‘noq” va “Qorxat” hikoyalari misolida ochib berilgan. Psixologizmning badiiy asar g‘oyasi va ijodkor estetik maqsadini ochib berishga xizmat qilishi masalasi keng tadqiq qilingan. Shuningdek, ikki hikoya tahlili orqali yozuvchining so‘z qo‘llash borasida o‘ziga xos uslubga egaligi ham o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, realistik tasvir, tugun, bilvosita ruhiy tahlil, portret, motiv.

Bugungi kun yozuvchilari o‘z hikoyalarida ma‘naviy-axloqiy masalalarni yoritishga alohida e‘tibor bermoqdalar. Shunga ko‘ra ularda konfliktning shaxs va jamiyat, shaxslararo ziddiyat kabi turlariga qaraganda shaxsning o‘zini o‘zi yengib o‘tishi hamda fe‘l-atvoridagi mavjud qusurlarni anglab yetishi bilan bog‘liq shakli ko‘proq namoyon bo‘ladi. Bu holat adiblarning butun diqqat-e‘tibori va badiiy nigohi inson ruhiyati va qalbiga ko‘chganligidan dalolat beradi. Odamning psixologik olami tasviri va tahlili o‘quvchini bevosita davr hamda jamiyatga aloqador muammolar sari yetaklaydi, turfa qahramonlar botinida kechayotgan tuyg‘ularni his qilishga undaydi.

Ijod olamiga hikoyanavis sifatida kirib kelgan Luqmon Bo‘rixon uslubining o‘zgachaligi va tilining shiraliligi bilan ajralib turadi. Yozuvchi mahoratining o‘ziga xos jihati shundan iboratki, u an‘anaviy realistik tasvirdan foydalanishda novatorlikka qo‘l uradi. Ya‘ni qalami o‘tkir ushbu ijodkor hikoyalarida an‘anaviylik va zamonaviylikning qorishiq ifodasi o‘z aksini topadi.

Bahodir Sarimsoqov ta‘biri bilan aytganda, “...realistik tasvirning vujudga kelishi badiiy obraz mazmuni va shakli o‘rtasida to‘g‘ri proporsional munosabat hamma vaqt ham badiiylikning bosh mezon bo‘lavermasligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, ezgu niyatli, doimo ezgu ishlarni amalga oshiradigan to‘la ma‘nodagi ijobiy shaxs tashqi qiyofa jihatidan o‘ta xunuk bo‘lishi mumkin. Bu uning hayotiyiligi, haqqoniyligini inkor etmaydi, balki oshiradi. Hayotda shaklan chiroyli, qaddi qomatli, go‘zal qiyofali shaxslar mohiyatan o‘ta qabih niyatli, inson deyishga arzimaydigan kishilar ham uchrab turadi” [6:94].

Luqmon Bo‘rixon ijodi, xususan, hikoyalari bo‘yicha tadqiqot olib borgan Y.Mahmudov yozuvchi hikoyalaridagi syujetning o‘ziga xosligi sifatida



adabiyotshunoslikning mavjud nazariy qoidalarga bo‘ysunavermasligini ta’kidlaydi. Shu bois adib hikoyalarda syujet unsurlarining aralash holda kelishi, tartibsizlik ichida ko‘z ilg‘amas darajadagi tartibning mavjudligi asarlar syujetining originalligini ko‘rsatadi. Tadqiqotchi syujet liniyalari aro qahramonlar muloqoti, xarakter va konfliktlarning poetik shakllanishi va tabiatiga diqqat qaratib, Luqmon Bo‘rixon hikoyalari syujeti badiiyatining boshqa yozuvchilar ijodidan farqi va originalligini aniqlash hamda kashf etishga muvaffaq bo‘ladi. Adibning obraz yaratishda ham o‘ziga xos uslubga ega ekanligini ta’kidlab, u yaratgan qahramonlar u asaridan bu asariga ko‘chib yurishini, ya’ni adibning qissa va romanlardagi obrazlar, avvalo, hikoyalarda ko‘rinish berishini hech bir nosir ijodida uchramagan jihat sifatida baholaydi. Lekin tadqiqotchining ushbu fikrlari birmuncha bahsli ekanini tan olish o‘rinlidir. Chunki bu kabi holatlar adabiyotimizda azaldan mavjud bo‘lgan hodisadir. Jumladan, ulug‘ ijodkorimiz Oybek (“Fanorchi ota”dagi Gulnor obrazining “Qutlug‘ qon” romanida uchrashi)ning bir qancha hikoyalari qahramonlari qissa va romanlariga xamirturush vazifasini o‘tagan [5:57].

Luqmon Bo‘rixonning “Qo‘noq” hikoyasi o‘quvchini inson taqdiri, jamiyat va shaxs munosabatlari haqida chuqur o‘yga tolishga majbur qiladigan asarlardan biridir. Ushbu hikoyada taqdirning ayovsiz sinovlari qarshisida bosh egmagan qahramonning ruhiy dunyosi tasvirlanadi. Sababni emas, oqibatni xush ko‘radigan muallif hikoyachi tilidan 22 yosh deb taxmin qilingan yigitning nima uchun qamalgani haqida biror marta gapirmaydi. Chunki uning asosiy maqsadi qahramonlar botinida kechayotgan ruhiy po‘rtanalarni tasvirlashdan iborat.

“*Uni ko‘rdim-u yuragim orqaga tortib ketdi*” tuguni bilan boshlangan ushbu hikoya kitobxonni asar mutolaasiga chorlaydi. Bilamizki, tugun asar voqealarining boshlanishiga turtki bo‘lgan voqea, asar konflikti qo‘yilgan joydir. Ekspozitsiyadan farqli o‘laroq, tugun syujetning zaruriy elementi sanaladi, ya’ni u syujetda har vaqt hozirdir. Faqat ayrim hollarda, xususan, ba’zi xronikali syujetlarda, shuningdek, “ichki harakat” dinamikasi asosidagi syujetlarda u yetarlicha bo‘rtib ko‘zga tashlanmasligi mumkin. Tugun, odatda, asarning boshida, ekspozitsiyadan keyinroq beriladi [4:115]. Lekin yozuvchi ushbu hikoya syujet tizimiga ma’lum o‘zgartirishlar kiritadi. Ya’ni ekspozitsiyadan keyin keladigan tugunning hamishagi o‘rnini asarning eng boshiga ko‘chiradi.

Ijodkor bu asarida ruhiy tahlilning bilvosita shaklidan keng foydalanadi. Masalan, tugundan keyingi jumlalarda tasvirlangan bosh qahramon xatti-harakatlari kitobxon ko‘z o‘ngida “qo‘noq”ning portretini gavdalantirishga yordam beradi: “U



tobutdek tebranib borayotgan vagon tamburining bir burchida cho‘nqayib o‘tirar, har bir o‘tib qaytuvchini qon nuqsi urgan ko‘zlari bilan qiziqsinib-qiziqsinib, bosh-oyoq kuzatib qolardi” [2:96]. Ushbu tasvirlardan ko‘rinib turibdiki, xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi qahramon jamiyat a‘zolaridan tubdan farq qiladi. Aynan shu alohidalik muallif tomonidan asar oxirigacha bot-bot takrorlanadi. Tamburga chekish maqsadida chiqqan hikoyachining ko‘zi unga tushishi bilan seskanib ketadi va ikkovlarini chetdan kuzatib turgan odamlar ongida “bular eski tanish bo‘lsa kerak” degan fikrning paydo bo‘lishidan qo‘rqadi.

Boshqa bir o‘rinda hikoyachining g‘alati nusxadan jirkanishi nutq orqali ifodalanadi: *“Balki u chindan ham ko‘zimga issiq ko‘ringandir? Yo‘g‘-e, bu nusxani birinchi marta uchratishim. Balki qo‘rquv aralash bosh irg‘ab yuborgandirman?*

Men o‘z qilmishimdan uyalib ketdim. Ko‘nglimga hijillik cho‘kdi. Odatda, ta‘bim tortmaydigan, izzatim ko‘tarmaydigan ish qilganimda ko‘nglim shunday g‘ashlik uyasi bo‘lib qolardi” [2:96]. Hikoyachining bosh qahramonni asar boshidan oxirigacha “nusxa” deb atashida ham, uni o‘g‘ri, bezori, ahmoq va jinoyatchiga chiqarishida ham yozuvchining badiiy maqsadi o‘z ifodasini topgan. Ya‘ni turqtarovati va xatti-harakatlari ayro bo‘lgan “qo‘noq”larni jamiyat sog‘lom fikrli inson sifatida hech qachon qabul qilolmaydi. Chunki odamning miyasiga qolipday quyilgan “shaxs” haqidagi tushunchalar bunga yo‘l qo‘ymaydi.

“Uch kun oldin qamoqdan chiqqan” bu nusxani kupedoshlari oldiga boshlab borgan roviy o‘z qilimishidan afsuslana boshlaydi. Negaki atrofdagilar kutilmagan mehmonning tashrifidan sira quvonmaydilar. Yosh yozuvchi Bayramali Qo‘ldoshevning ta‘kidlashicha, u barcha qatori odam bo‘lmay – qurmag‘urning ma‘naviy qarashlari jamiyatning umum tushunchaga aylanib ketgan nomukammal qoidalarini chetlab o‘tgan, ruhi esa ozod qush misoli erkin bir kimsa edi. Bunday ichki ozodlikni tasavvur eta olmaydigan ma‘nan qashshoq odamlar uchun endi uning xavotir, yotsirash olib kelishi, o‘z-o‘ziga xosligi bilan o‘takalarini yorishi, albatta, juda tabiiy [9]. Hikoyachi qo‘noq bilan inoqlashib qolganini aytganidan keyin kupedagilarning besaranjomligi oshkora g‘azabga aylanadi: *“Biroq shu lahzadayoq qarshimdagi yuqori joyda yotgan Boyning g‘azab bilan uyulayotgan qovoq-tumshug‘iga nogoh ko‘zim tushdi-yu, damim ichimga tushib ketdi. Uniki kamday, Bek ham chaqchaygan ko‘zlari bilan mehmonga tahdidli ishoralar qildi. Bu – uning “yo‘qot manovini!” degani edi*” [2:107]. Shu o‘rinda, muallif kupedagilarga ism tanlashda yangicha yondashuvga qo‘l urib, tom ma‘noda kinoyaga yog‘rilgan Jon, Bek, Boy va Qul nomlaridan foydalanadi. “Bizga ma‘lumki, jamiyatning erkatoylari



– “Jon”lari bo‘ladi; yana hukmfarmolari – “Bek”lari, tantilari hisoblangan – “Boy”lari yoki Qullari ham oramizda bor, albatta. Ular uzoqda emas – hayotimizda; shundoqqina qarshimizda va yo... o‘z siyratimizda yashab yuribdi. Fikrimcha, muallif ham bu ramziy ifodalar yordamida butun jamiyatni, bani insoniyatni o‘z asariga qamrab olishni istayapti. Axir ming afsuslar bo‘lsin, oramizdagi o‘sha Jonlar, Beklar, Boylar... ning hammasi ham asarda ochib berilgani kabi qaysidir ma’noda mahkum, qaysidir ma’noda jamiyat o‘zi o‘ylab topgan ijtimoiy qonunlarning qulidir!” [9]

Yozuvchining estetik ideali asarning turli o‘rinlarida kelgan bosh qahramon nutqi orqali yuzaga chiqadi. Masalan, roviy bilan suhbat chog‘idagi qo‘noq tilidan aytilgan quyidagi jumlada qahramonning oqlik va ezgulikka to‘la qalb kechinmalari o‘z ifodasini topgan:

“Kamera devorini ham shunday oqqa bo‘yardim-da, tong otguncha termulib o‘tirardim. Hech charchamasdim. Mumkin, sizga kulgilidir, mumkin, meni tentakka chiqararsiz, lekin baribir gapiraveraman” [2:101]. Yuqoridagi tasvirlarda muallif oq rang va tong so‘zlaridan ramziy ma’noda foydalanadi. Ya’ni turmaning to‘rt devori ichida jazo o‘tayotgan bir kimsaning oqlikka termulgancha tongni kutishi orqali ertangi kundan umidini uzmagan inson timsoli gavdalantirilgan. Boshqa bir o‘rinda esa qo‘noqning *“turmani odam bolasi ko‘rmasin”* deya qult etib yutinishida insonga faqat va faqat ozodlik “yarashishi” haqidagi azaliy iqrorning badiiy ifodasiga duch kelamiz.

Quyidagi qahramon nutqida ham ozodlik tuyg‘usining inson hayotidagi o‘rni va ahamiyatiga to‘xtalib o‘tilgan: *“Shu oqlikka termulsam, o‘zimni ko‘m-ko‘k osmonda, oppoq bulutlarning orasida ozod uchib yurganday his qilaman. Termulganim sayin shu oqlikka singib ketayotganday bo‘laveraman. Eh, nimasini aytay, o‘sha beton devorlarning oqqa bo‘yalgan bir qulochcha joyi meni uch yil omon saqladi, uch yil!..”* [2:105]

Adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshev “Yoniq so‘z” asarida qayd etishicha, “Bugungi odam – murakkab. Bugungi o‘quvchi – o‘ychil. Bugungi yozuvchi – sinchkov” [8:23]dir. Hozirgi o‘qirman badiiy asar mutolaasiga shunchaki kirishmaydi, balki uni tahlil qilish orqali so‘zlar ortida berkingan hayotiy haqiqatlarni anglash va qahramonlar ruhiyatini tushunishga harakat qiladi.

Qamoqdan chiqqan yigitning ozodlikka faqatgina tashqarida, ya’ni erkin jamiyatda erishish mumkin degan qarashga ishonishi quyidagi jumlada o‘z ifodasini topgan: *“Eh! – dedi jabrdiyda, nihoyat, menga o‘grilib. – Bekorchi narsalarni gapirib o‘tirishimni qarang. Buning hammasi bema’nilik, o‘z-o‘zini aldash. Xudoga shukur,*

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



endi hammasi orqada, hammasi o‘tdi. Men endi ozodman! Men endi ozod! Menga endi hech bir oqlik – poklik kerak emas! Men endi odamlar orasidaman! Ha-ha-ha...” [2:105] Ushbu tasvirlardan shuni anglash mumkinki, yigit o‘zini ertangi kunning kelishiga ishonib yashashga “majbur qilgan” poklik va ozodlik tuyg‘ularining kamyob hodisa sanalishi hamda bularning faqatgina o‘zining toza tasavvurida mavjudligini hali bilmasdi.

Hikoya yakuni qushga qiyoslangan qahramonning ozodlikning osmondagina bo‘lishi mumkinligi haqidagi iqrori ifodalangan tasvir orqali beriladi: *“Unga yana beixtiyor ko‘zim tushdi. U hamon cho‘nqayib o‘tirar, o‘sha bo‘yalgan joyga toliqmay tikilar edi. Ajab nusxa xuddi shu o‘tirishida qushga o‘xshardi. Ha, bahaybat, mag‘rur qushga o‘xshar edi! U, nazarimda, o‘zining bepoyon oqlik o‘lkasi tomon mangu parvozga shaylanayotganday tuyuldi.*

Poyezd o‘kirib shiddat bilan yelib borar edi” [2:113].

“Qo‘noq” hikoyasi sarlavhasi ham ulkan ma‘no tashigan desak, adashmagan bo‘lamiz. Bilamizki, ushbu so‘z o‘zbek tilida *“vaqtinchalik yashovchi”*, *“muvaqqat mehmon”* kabi ma‘nolarni anglatadi. Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, muallif qo‘noq, ya‘ni yo‘lovchi sifatida tasvirlangan bosh qahramon ruhiyati orqali inson hayotining o‘tkinchiligi va bu dunyoning bevafoqligini anglatishni maqsad qilgan. Shuningdek, yo‘l va safar motivlari vositasida asl hayotiy haqiqatni anglash uchun yo‘lga chiqqan yigit obrazi gavdalantiriladi.

Adabiyotda bitta muammo bor: odamning hayoti, odamning ko‘ngli va taqdiri. Boshqa muammo yo‘q. Boshqasi yordamchi gaplar [7:127]. Shunday ekan, bugungi yozuvchining vazifasi ham imkoniyatlarini ishga solib, o‘z asarida davr bilan hamnafas yangilanib borayotgan inson va uni qurshab turgan muammolarni yoritishdan iborat. Luqmon Bo‘rixonning “Qorxat” hikoyasida atrofdagilaridan farqli o‘laroq, qalbini sofligicha saqlab qolgan qahramon fojiasi Zarif obrazi misolida tasvirlangan. Zarif Ro‘ziyev idoraning oddiy xodimi, hamkasbi Sayfullaning ta‘biricha, *“ishga qunishibgina kelib, qunishibgina ketadi”*. Hikoya birinchi qor tufayli qahramon ruhiyatida sodir bo‘lgan evrilishlar tasviri bilan boshlanadi: *“Ertalab uchqunlay boshlagan qor peshin payti gupillab, chinakamiga yog‘a ketdi. Uchib-o‘ynoqlab yerga, dov-daraxtlarga qo‘nayotgan pag‘a-pag‘a qor hash-pash deguncha chor-atrofnii harir oqlikka burkab tashladi. Idora derazasidan bu ajib manzarani kuzatib o‘tirgan Zarif tobora zavq-shavqqa chulg‘anib borar, qiyqirgan ko‘yi tashqariga otilib chiqqisi, qor qalin to‘shalgan yerlarda umbaloq oshgisi kelardi. Birinchi qor!”* [2:14] Ushbu jumlada “oqlik” ramzi bo‘lgan qor chor-atrofdan



tashqari Zarifning botinini ham qaysidir ma'noda tozartirishga xizmat qiladi. Shu o'rinda muallif hamkasbining bolalarcha qiliqlaridan g'ashi kelgan Sayfulla portretini chizishda mahorat bilan yondashadi: *“Hali yosh bo'lishiga qaramay tepa sochi to'kila boshlagan, biqqa semiz hamxonasi tomon Zarif iljayganicha ko'z tashladi”* [2:14]. Bundan tashqari, “stoliga muk tushgan ko'yi shapaloqdek telefoni ekraniga tikilib o'tiradigan” Sayfulla obrazi telefon “qul”iga aylanib, atrofdagi voqealarga befarq bo'lib qolgan shaxslar siymosini gavdalandirgan.

“Zamonaviy adabiyotda portret bayonini qisqartirishga, qahramonlar tashqi ko'rinishining shtrixga xos detallarini tasvirlashga o'tish tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Qahramon ichki kechinmalarining natijalarini aks ettirar ekan, ba'zan portret tavsifi yoki uning alohida detallari uning ruhiyatini sharhlashga xizmat qiladi. Personajni individuallashtirish, xarakterlashdan tashqari portret yana matn turli darajalarining aloqadorligini yuzaga chiqaradi, modallik va konseptuallik kategoriyalari ahamiyatini oshiradi” [1:184-185].

Ushbu hikoyada yozuvchi bilvosita psixologizmdan keng foydalanadi. Masalan, hamkasbining ilmoqli gaplariga qaramay, lazmatli tuyg'ulardan sarmast bo'lishda davom etgan Zarifning ruhiyatidagi izdihomlar muallif nutqi orqali beriladi: *“Ayni paytda uning yuragi sog'inchmi, qo'msashmi, shunga o'xshash totli hislarga to'lib-toshib borar, tinimsiz hazillashgisi, qah-qah otib kulgisi kelardi. Ko'z o'ngida xuddi qor uchqunlari kabi olis xotiralar charx urib yurar, beg'ubor bolalik qiy-chuvi quloqlari ostida jaranglar edi. Birinchi qor yoqqan kunlari qishloqda chinakam bayramona kayfiyat paydo bo'lardi. Katta-yu kichik bir-biriga qorxat yozishar, o'yin qoidasiga ko'ra bir-birini quvlab yurardi. Rosa qiziq bo'lardi-da o'ziyam...”* [2:15] Sayfulla Zarifdagi bu o'zgarishlar unga “kimningdir lavozimini oshirishga va'da bergani” (keyinchalik bu taxmindan voz kechadi) yoki “shirakayf bo'lgani” uchun paydo bo'lgan deb o'ylaydi. Hatto u ham hamxonasi qalbidagi to'ntarishlar sababchisi birinchi qor ekaniga ishonish u yoqda tursin, taxmin qilishga ham o'zlik qiladi. Muallif Zarif va Sayfulla personajlarini qarama-qarshi qo'yish orqali bir joyda ishlaydigan insonlarning qarashlari doimo bir xil bo'lmasligiga ishora qiladi.

Bolalik xotiralariga ko'milgan qahramon tag'in o'sha paytlardagiday qorxat yozishni istaydi: *“Esida, qishloqdoshlari bir-birlariga qorxat yo'llasharkan, ko'pincha bitta to'kin ziyofat qilib berish shartini qo'yishardi, ba'zilar hindcha kino tomoshasi ketayotgan kinoteatrga olib tushishni talab etishardi. Yo'q, Zarif boshqacha yo'l tutadi. Uning “Qorxat”i sirli va jozibali bo'lishi kerak. Biror nozik xohishni bajarish shartini qo'yadi. Ana shunisi qiziq-da...”* [2:15] Lekin qorxatni



kinga yozish haqida obdon o‘ylagan Zarif oxir-oqibat hisob-kitob bo‘limidagi Zahroni tanlaydi. Muallif uni bu tanlovni qilishga undagan ikkita sababni keltiradi. Birinchisi Zahroning ikki yilcha oldin eri bilan ajrashib, bolasi bilan ota uyiga qaytib borganidan buyon xomush qiyofada yurishi bo‘lsa, ikkinchisi ayolning g‘oyat chiroyli va kelishgan xilqat ekanligidir. Yana shuni ta’kidlash kerakki, Zarif yozadigan sirli qorxatni idora xodimlaridan faqat Zahrogina tushunishi mumkinligiga ishonadi (ta’kid bizga tegishli).

Yozuvchi qahramonning psixik holatini tabiat tasviri bilan uyg‘un holda chizadi: *“Tashqarida qor tobora tezlashib, quyuqlashib yog‘ardi. O‘ynoqlab-uchib kelib urilayotgan oppoq uchqunlardan deraza allanechuk chisirlaydi, go‘yoki sirli shivirlaydi, butun borliqni qoplab olayotgan oqlik, tiniqlik qo‘yniga chorlayotganday tuyuladi”* [2:16]. Ya’ni baxtiyor inson butun olamdan go‘zallik qidiradi, kimlargadir yaxshilik qilgisi keladi. Shoir Sadridin Salim Buxoriy bir she’rida bu haqda shunday degan edi:

*Illat izlaganga – illatdir dunyo,
G‘urbat izlaganga – g‘urbatdir dunyo.
Kim neni izlasa, topgay begumon,
Hikmat izlaganga – hikmatdir dunyo.*

Ushbu misralar qatiga yashiringan azaliy haqiqatni qorxatdagi “nozik” ishni o‘zicha tushungan Zahro, qorxatni “karxat”, “ko‘rxat”, “qoraxat” kabi talaffuz qilgan Alfera Tagirovna, birgina “gunoh”i tufayli Zarifni ishdan bo‘shatib yubormoqchi bo‘lgan direktorlarning psixologik tasvirlaridan yaqqol sezish mumkin. Muallif qorxat va qoraxat so‘zlarini qarama-qarshi qo‘yish orqali nafsoniy istaklarini qondirish (pul topish, kayf-safo qilish)dan bo‘shamaydigan tuban shaxslar obrazini yaratadi.

Boshiga musibat tushgan insonning ko‘ziga butun olam qorong‘i bo‘ladi: *“Qor hanuz gupillab yog‘ardi. Chor-atrof oppoq tusga kirdi. Boshliqning talabini bajarib o‘tirgan Zarifga chor-atrof oppoq kafanga o‘ralgandek tuyuldi”*. Ushbu tasvirlardan ko‘rinib turibdiki, muallif qayg‘u girdobida qolgan odamning ruhiy kayfiyatini ifodalashda boshqa yozuvchilardan farqli ravishda qora rangdan emas, oq rangdan foydalanadi. Bu esa nosirning so‘z qo‘llash mahorati yuksak ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, “nozik” sifatining ikki xil o‘rinda ishlatilishi hikoya qahramonlarining psixologik dunyosini ko‘rsatish uchun ko‘zgu bo‘lgan desak, adashmagan bo‘lamiz. Masalan, Zarifning qorxatda yozgan “nozik” istagi bilan boshliqning Zahroga aytgan “nozik” iltimosi orasida yer bilan osmoncha farq bor.



Birinchisida nazarda tutilgan “nozik” ish qalbi ezgulik va yaxshilikka limmo-lim yigitning g‘oyatda yuksak, ikkinchisidagi “nozik” iltimos esa o‘z maqsadlari yo‘lida boshqalarni qurbon qilishdan tap tortmaydigan kimsalarning naqadar tuban ekanini ko‘rsatgan:

“– Mana, jonginam, nozik iltimosingiz bajariladigan bo‘lib turibdi, – derdi boshliq kimnidir erkalagan ohangda. – Ro‘ziyevni axloqsiz qilmishi uchun haydaymiz-u, o‘rniga ukangizni olamiz...”

Zarif ko‘r-u kar bo‘lib, qora terga botib qabulxonadan chiqdi.

Tashqarida charx urib birinchi qor yog‘ardi...” [2:20]

Qabulxonadagi gaplardan ko‘zi ko‘r, qulog‘i kar bo‘lgan bosh qahramonning ahvoliga hamkasblarining achinmasligi hikoya yakunida tasvirlangan qorning gupullab yog‘ishi holati orqali ifodalangan. Umuman olganda, Luqmon Bo‘rixonning “Qorxat” hikoyasida shaxs psixologik dunyosining nechog‘lik murakkabligi, qo‘rquv va hayrat kabi tuyg‘ularning shaxs ruhiyatiga ta‘siri yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar o‘quvchini qahramonlarning ichki olamini anglash hamda kechinmalarini tushunishga undaydi.

Adabiyotshunos Bahodir Karim ta‘kidlaganidek, so‘z san‘ati inson ruhiyati bilan ish ko‘rar ekan, ruhiyatni ampermetr, barometr, atsellograf, kardiograf, analizator, aeromagnetometr kabi fizik asbob-uskuna bilan o‘lchab ham, har lahzada ming tovlanadigan inson ruhiyatini aniq bir matematik formulalarga solib ham bo‘lmaydi [3:5]. Umuman olganda, Luqmon Bo‘rixon hikoyalarida qahramonlar ichki olami tasviri psixologizmning turli vositalari orqali ochib beriladi. Ushbu holat ijodkorning o‘z uslubiga ega yozuvchi ekanligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобохонов М. (2022). *Ҳозирги ўзбек романларида психологизм муаммоси: Фил. фан. док. (DsC) ... дисс.* Самарқанд.
2. Бо‘rixon L. (2023). *Ovchi qismati*. Turon zamin.
3. Каримов Б. (2018). *Руҳият алифбоси*. Ф.Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
4. Quronov D. (2020). *Adabiyot nazariyasi asoslari*. Innovatsiya-Ziyo.
5. Sadullayeva M. (2023). *Luqmon Bo‘rixonning qissa va hikoyalarida badiiy mahorat masalasi: Fil. fan. fals. dok. (PhD) ... diss.* Urganch.
6. Sarimsoqov B. (2004). *Badiiylik asoslari va mezonlari*. Fan.
7. Йўлдош, Қ. (2019). *Очқич сўз*. Тафаккур.
8. Йўлдош, Қ. (2006). *Ёниқ сўз*. Янги аср авлоди.
9. <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/luqmon-borixon-qonoq-luqmon-borixon-ijodiy-uchrashuv>.